



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
IV-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
IV-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI	12
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna	
MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	19
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	23
Mirzataev Salamat Muratbaevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQRISH VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	28
Tureev Azizbek Abatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELI.....	32
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	37
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS.....	43
Ravshanova Mohinur O'rolovna	
O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	51
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	55
Qaraev Anvar Botirovich	
THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY	61
Toirova Mubina	
IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI.....	66
Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI.....	73
Rizayeva Nilufar Oblakulovna	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI	79
Abdulla Mavlonov	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	82
Komekova Gulzira Sharbaevna	



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АГРЕГИРОВАНИЮ РАЗРОЗНЕННЫХ ДАННЫХ В ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ	87
Бекматов Акмал Курбонмахматович	
SUG'URTA TASHKIOTLARIDA MHXSGA O'TISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	93
Azamatova G. I.	
O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNING XARAJAT-FOYDA TAHLILI	98
Omonov Olim Murodullayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	104
Isxakova Sarvar Ayubovna	
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В КРЕДИТНОМ СКОРИНГЕ РОЗНИЧНЫХ ЗАЁМЩИКОВ: ОПЫТ АКБ «КАПИТАЛБАНК» (РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН)	109
Жанайдарова Камола Абаевна	
CHANGE MANAGEMENT DURING QUALITY ASSURANCE REFORM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	115
Urinov Bobur Nasilloevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL VODOROD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING BIZNES VA INVESTITSION MEKANIZMLARI	123
Nuraliyeva Komila Sanaqulovna	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI: SOLIQ ISLOHOTLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	130
Utkirova Jasmina Jasur qizi	
XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTIDA XUSUSIY INVESTITSİYALAR VA AHOLI DAROMADLARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI	135
Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI VA BASHORATI	141
Xakimov D.R.	
ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА НА ЗАНЯТОСТЬ: ОПТИМИЗАЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ РАБОЧИХ МЕСТ	151
Эркинбаева Камила Жавлонбековна	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	156
Tangirkulov Bekzod Boxadirovich	



TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Tangirkulov Bekzod Boxadirovich

Mustaqil tadqiqotchi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasining Masofaviy nazorat boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari
E-mail: fayz.tangirkulov@gmail.com

Annotatsiya. Tijorat banklarida moliyaviy resurslarni shakllantirish va ularni samarali boshqarish masalalari tadqiq etilib, mamlakat bank tizimining asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Moliyaviy resurslarni boshqarishning nazariy asoslari, uning zarurati hamda o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida resurslarni jalb etish tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, O'zbekiston tijorat banklarida moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, moliyaviy resurslar, moliyaviy resurslarni boshqarish, kreditlash, depozit resurslari, bank faoliyati, takomillashtirish, O'zbekiston.

Abstract. The issues of forming and effectively managing financial resources in commercial banks are examined, and the key indicators of the national banking system are analyzed. The study highlights the theoretical foundations of financial resource management, its necessity, and its specific characteristics. In addition, a comparative analysis of resource mobilization practices in developed countries is conducted, and recommendations aimed at improving the efficiency of financial resource management in the commercial banks of Uzbekistan are proposed.

Keywords: commercial banks, financial resources, financial resource management, lending, deposit resources, banking activities, improvement, Uzbekistan.

Аннотация. Исследуются вопросы формирования и эффективного управления финансовыми ресурсами коммерческих банков, а также анализируются основные показатели банковской системы страны. Освещены теоретические основы управления финансовыми ресурсами, его необходимость и специфические особенности. Кроме того, проведён сравнительный анализ практики привлечения ресурсов в банковских системах развитых стран и разработаны предложения, направленные на повышение эффективности управления финансовыми ресурсами коммерческих банков Республики Узбекистан.

Ключевые слова: коммерческие банки, финансовые ресурсы, управление финансовыми ресурсами, кредитование, депозитные ресурсы, банковская деятельность, совершенствование, Узбекистан.

KIRISH

Zamonaviy sharoitda tijorat banklari moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, xususan, moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirishning nazariy asosida banklarning barqarorligini oshirish va likvidligini ta'minlash, tijorat banklarini uzoq muddatli va barqaror resurslar bilan ta'minlash, risk va foyda o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni samarali tashkil etish, bank aksiyalari qiymatini oshirish hamda vujudga kelishi mumkin bo'lgan risklar darajasini pasaytirish kabi dolzarb masalalar yotadi¹.

Respublika iqtisodiyoti rivojlanishida boshlangan yangi davr tijorat banklari oldiga muhim vazifalarni qo'yimoqda. Ularning yechimi tijorat banklarining kreditlash salohiyatini yanada kengaytirish, faoliyatining ishonchiligi va samaradorligini oshirish orqali ta'minlanadi. Belgilangan vazifalarni bajarish uchun banklarda barqaror resurs bazasini kengaytirish, depozit va omonatlarning yangi turlarini muntazam ravishda joriy etish, aholidan jamg'arma va muddatli depozitlarni qabul qilish hamda kredit qo'yilmalarining manbalarini samarali boshqarish tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tijorat banklari kreditlash hajmining o'sishiga xizmat qiladi².

1 Ortiqov U.D. (2023), "Tijorat banklari moliyaviy resurslari boshqarishni takomillashtirish", DSc. diss. Avtoreferat ma'lumotlari.

2 Adilov M.M. "Tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish", PhD. dissertatsiya avtoreferat ma'lumotlari, Toshkent-2024.



Shularni e'tiborga olgan holda, keyingi yillarda O'zbekistonda tijorat banklarining moliyaviy resurslari hajmini oshirish va banklar barqarorligini ta'minlash masalalariga Markaziy bank hamda hukumat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son³ Farmonida "moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, kreditlashni faqat bozor tamoyillari asosida amalga oshirish, tijorat banklari xizmat ko'rsatish faoliyatini modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va avtomatlashtirish, shuningdek, banklar faoliyatiga xos bo'lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish" kabi muhim vazifalar aniq belgilab qo'yilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining barqarorligi va ular faoliyatining rentabelligi moliyaviy resurslarning shakllanishi va tuzilishiga chambarchas bog'liq hisoblanadi. Tijorat banklari barqarorligi turlarini tahlil qilib chiqqanimizda, ular ichida eng asosiysi, ya'ni barqarorlik bazasi — "moliyaviy barqarorlik" ekanligini ko'rishimiz mumkin. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida "moliyaviy barqarorlik" tijorat banklari faoliyatining birlamchi va asosiy turi ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. Birinchidan, "moliyaviy barqarorlik" tijorat banklari faoliyatida boshqa barqarorlik bloklarining faoliyat yuritishiga asos bo'lib xizmat qiladi va ularning bazasi hisoblanadi [4; p. 36–37].

Quyida keltirilgan jadvalda tijorat banklarining barqarorlik turlari va ularning mazmun-mohiyati ko'rib chiqiladi (1-jadval).

1-jadval
Tijorat banklari faoliyatida barqarorlik turlari va uning iqtisodiy mazmuni⁴


<i>Barqarorlik turlari</i>	<i>Mohiyati va mazmuni</i>
Moliyaviy barqarorlik	Tijorat banklari faoliyatining integral ko'rsatkichlari bo'lib, bank moliyaviy-iqtisodiy holatini aks ettiradi, bular: o'z mablag'lari hajmi, kapital strukturasi, daromad va foyda miqdori, kapitalga nisbatan foyda miqdori, likvidlilik va boshqalar
Tijoriy (tijorat) barqarorlik	Tijorat banklarining bozor infratuzilmasiga moslashganligi, bular jumlasiga: bankning davlat bilan aloqasi, banklararo munosabatlardagi ishtiroki, kreditorlar, mijozlar va omonatchilar bilan munosabatlar sifati, bankning ijtimoiy ahamiyati va boshqalar
Funksional barqarorlik	1. Bank ixtisoslashuvi bo'yicha 2. Bank universallashtiruvchi bo'yicha
Tashkiliy-strukturaviy barqarorlik	Bank alohida faoliyatlarini funksional-texnologik hujjatlar asosida tashkil etilishi
Umumiy barqarorlik	Tijorat banklari aksionerlik kapitali hajmi bilan aniqlanadi

Hozirgi kunga kelib, tijorat banklari faoliyatida moliyaviy resurslar manbalarining tuzilishi, resurslar bahosi va ularning holati nafaqat bankning kreditlash faoliyati natijalariga, balki kelgusida kreditlash faoliyatidan olinadigan daromadlarni prognoz qilish imkoniyatiga ham ta'sir ko'rsatadi [3; p. 45–46]. Tijorat banklarining kreditlash faoliyati uchun zarur hisoblangan moliyaviy resurslar banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalar orqali shakllantiriladi. Shundan kelib chiqqan holda, tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini ikki katta guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh — tijorat banklarining o'z mablag'lari yordamida kredit operatsiyalarini tashkil etish hisoblansa, ikkinchi guruh — jalb qilingan mablag'lar hisobidan kredit qo'yilmalari shakllantiriladi va ular bank faoliyatining asosiy foizli daromadlarini ta'minlaydi [1; p. 82–84].

Tijorat banklarining passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, passivlarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini amalga oshirishida o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga, resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatidagi o'zgarishlar ham ta'sir ko'rsatadi [2; p. 23–25]. Quyidagi rasmda tijorat banklari passiv operatsiyalarining asosiy jihatlari ko'rishimiz mumkin (1-rasm).


³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4811025>

⁴ Boshqa olib borilgan izlanishlar asosida mustaqil tayyorlandi.



1-rasm. Tijorat banklari passiv operatsiyalarining asosiy jihatlari⁵

Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil etadi va bu, o'z navbatida, banklar faoliyatining doimiyligiga asos bo'lib xizmat qiladi. Tijorat banklarining resurs bazasini resurslarning turlari bo'yicha guruhlariga ajratish va ularni optimallashtirish tijorat banklari oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi [3; p. 51–52]. Banklarning kredit portfelini samarali tashkil etish va portfel daromadligini oshirish tijorat banklari tomonidan moliyaviy resurslarni samarali shakllantirishni, ularning manbalari bahosi va hajmini tizimli boshqarishni taqozo etadi [1; p. 63–65]. Tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini shakllantirish, boshqarish va takomillashtirishning asosiy masalalarini quyida keltirilgan rasm yordamida ko'rishimiz mumkin (2-rasm).



2-rasm. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishning dolzarb vazifalari⁶

Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish va tizimli tahlil qilish jarayonida bank tomonidan jalb qilingan resurslarning holati, ular bo'yicha kelishilgan muddatlar, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tasniflanishi, kreditlash uchun yo'naltirilgan mablag'larning bahosi va daromadligi, shuningdek, boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha monitoring ishlarining doimiy ravishda olib borilishi moliyaviy manbalarning rentabelligiga hamda bank kredit portfelining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [3; p. 31–32].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishni takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilib, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslar samaradorligini oshirish hamda uning kredit

⁵ Boshqa olib borilgan tadqiqotlar asosida mustaqil tayyorlandi.

⁶ Boshqa olib borilgan tadqiqotlar asosida mustaqil tayyorlandi.



portfeli sifatini yaxshilashga ta'siri alohida tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishni takomillashtirishga oid mavjud ilmiy adabiyotlarni va shunga o'xshash kontekstlarni har tomonlama o'rganishni, tijorat banklari moliyaviy resurslari bilan bog'liq ko'rsatkichlar hamda statistik ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, tadqiqot metodologiyasi asosan ikkilamchi ma'lumotlar bazasi asosida olib borilgan. Tahlil ma'lumotlarining asosiy qismini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari tashkil etadi. Shu bilan birga, boshqa tadqiqotchi olimlar tomonidan tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishni takomillashtirishga doir olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalaridan ham keng foydalanilgan.

TAHLILI VA NATIJALAR

Mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida kredit qo'yilmalari manbalarining o'sishi, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarining jadallashuvi, dollarlashuv darajasining kengayishi va boshqa bir qator omillar ta'siri natijasida kredit qo'yilmalari hajmining sezilarli o'sishi kuzatildi [6; p. 45–48]. Tijorat banklarining jami kredit qo'yilmalari 2025-yil 1-yanvar holatiga 533,1 trln. so'mni tashkil etib, ularning 66,5 foizi korporativ kreditlar va qolgan 33,5 foizi chakana kreditlar hissasiga to'g'ri keladi⁷. Quyida keltirilgan jadvalda tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarkibiy tuzilishi va uning tahlili ko'rib chiqiladi. Keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida uchta asosiy yo'nalishdagi: 1) tijorat banklarining jami kredit qo'yilmalari hajmi, 2) tijorat banklari tomonidan yuridik shaxslarga berilgan kreditlar va 3) jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ko'rsatkichlarining olti yillik ma'lumotlari yillar kesimida keltirilgan (2-jadval).

2-jadval
Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarkibiy tuzilishi (trln. so'm va ulushi foizda)⁸,


Ko'rsatkichlar / yillar	Kredit qo'yilmalari, jami		Yuridik shaxslar kreditlari		Jismoniy shaxslar kreditlari	
	Summa	%	Summa	%	Summa	%
2019	211,6	100	171,6	81,1	39,9	18,9
2020	276,9	100	222,1	80,2	54,8	19,8
2021	326,4	100	256,9	78,7	69,5	21,3
2022	390,1	100	289,1	74,1	100,9	25,9
2023	471,4	100	322,8	67,9	148,6	32,1
2024	533,1	100	355,6	66,5	177,5	33,5

Banklar uchun yuqori rentabellikka erishishda, hozirgi iqtisodiy sharoitdan kelib chiqqan holda, kredit qo'yilmalari manbalarini to'g'ri shakllantirish va optimallashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari faoliyatining samaradorligi va banklarda barqaror daromadlar uzluksizligi, birinchi navbatda, tijorat banklarining moliyaviy resurslar bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq.

Tijorat banklarining kredit qo'yilmalari manbalari ikki yo'nalishda shakllanadi: 1) depozit mablag'lari hisobidan; 2) nodepozit mablag'lar hisobidan. Quyida keltirilgan rasmda tijorat banklari jami resurslari tarkibidagi asosiy manbalar — depozit mablag'lari va nodepozit mablag'larining nisbati hamda dinamikasini ko'rishimiz mumkin (3-rasm).

7 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, pul-kredit siyosatining 2024-yil davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari ma'lumotlari.


8 O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Statistik bulletin, "Kredit tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari", 5.1.11-jadval ma'lumotlari asosida tayyorlandi, 2022-yil.



3-rasm. Tijorat banklari jami resurslari tarkibida asosiy manbalar nisbati va dinamikasi (trln. so'm)⁹

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, tahlil davrining boshidan, ya'ni 2018-yildan 2021-yilgacha jami resurslar tarkibida nodepozit mablag'larining ulushi yuqoriroq bo'lgan. Tahlil davrining oxiriga kelib, 2023-yilda jami resurslar tarkibida depozit mablag'lari nodepozit manbalardan 7,2 foiz bandga oshib, 241,7 trln. so'mga yetgan. Shuningdek, nodepozit mablag'lar ham yillar davomida o'sish dinamikasini namoyon etib, 2023-yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,2 foiz bandga o'sib, 225,5 trln. so'mga yetganligini ko'rishimiz mumkin.

Quyida keltirilgan rasm ma'lumotlari asosida tijorat banklarining muddatli mablag'lari va xatarli aktivlari dinamikasi keltiriladi (4-rasm).



4-rasm. Tijorat banklarining muddatli mablag'lari va xatarli aktivlari dinamikasi (trln. so'm)¹⁰

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida ta'kidlash lozimki, tijorat banklari faoliyatida muddatli mablag'lar hajmi ajratilgan kredit mablag'lari hajmiga nisbatan kamroq ekanligini ko'rish mumkin. Tahlil davrining boshidan, ya'ni 2019-yildan tahlil davrining oxirigacha, 2023-yilgacha ushbu ko'rsatkich bo'yicha muddatli mablag'lar hajmi xatarli aktivlar hajmidan past darajada shakllangan. Ya'ni, banklarning muddatli mablag'lari xatarli aktivlar hajmidan oshmaganligini kuzatish mumkin.

9 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Pul-kredit siyosatining 2023-2024-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

10 O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tuzildi.



Fikrimizcha, bank tizimida depozitlar bazasini kengaytirishga va hukumatning bank tizimini moliyalashtirishdagi rolini bosqichma-bosqich optimallashtirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, banklar optimal kredit portfelini shakllantirishda jalb qilingan mablag'larning safarbar etilish (mobilizatsiya) darajasi, tijorat banklari kredit salohiyatining tuzilishi hamda banklar amaliyotida tashkil etilayotgan rezerv va fondlarni inobatga olgan holda faoliyat yuritishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari passiv operatsiyalari natijasida shakllantirilgan moliyaviy mablag'lar ularga aktiv operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Banklarning moliyaviy resurslari qanchalik uzoq muddatga va arzon qiymatda jalb qilinsa, bu ularning likvidligini ta'minlash hamda foydaliligini oshirishda shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro bank amaliyotida uzoq muddatli moliyaviy resurslar ulushining sezilarli darajada yuqori ekanligi banklarning likvidligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, xalqaro bank amaliyotida banklar passiv mablag'lari tarkibida depozitlarning ulushi 65–70 foizni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich mahalliy banklarda o'rtacha 43–45 foizni tashkil etib, depozit bazasini yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Tijorat banklari resurslarini sifatli monitoring qilish va kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirishda moliyaviy rejalashtirishning taktik va strategik usullarini inobatga olgan holda, ularni zamon talablariga mos ravishda samarali boshqarishni tashkil etish muhim hisoblanadi.

Tijorat banklari depozit manbalarini optimallashtirish sohasidagi yetakchi xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, likvidlik va kapitalni samarali boshqarish, shuningdek, davlat bilan faol hamkorlikni rivojlantirish muvaffaqiyatning asosiy omillari hisoblanadi.

Tijorat banklari mavjud barcha moliyaviy mablag'lardan aktiv operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida to'liq foydalana olmaydi. Shu sababli, tijorat banklari kredit salohiyatini to'g'ri baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari kredit salohiyati qanchalik barqaror va mustahkam bo'lmasin, jamiyatda ushbu kredit resurslariga bo'lgan talab darajasini hisobga olish ham samarali kredit siyosatini yuritishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adilov M.M. Tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024.
2. Otamurodov H.H. Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish. – Toshkent, 2019.
3. Ortiqov U.D. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishni takomillashtirish: DSc dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023.
4. Omonov A.A. Tijorat banklari resurslarini samarali boshqarish masalalari: iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2008.
5. Sattarov O.B. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish: iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2018.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik sharhi ma'lumotlari. – Toshkent, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2018–2024-yillardagi tijorat banklari faoliyati to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>